



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 19 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	

TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK OMILLARI

Sobitova Shaxnoza Shokir qizi

TATU psixologi

E-mail: shaxnozasobitova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda liderlik xususiyatlarining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxsiy motivatsiya, muloqot madaniyati va guruhiiy munosabatlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: talaba, liderlik, psixologiya, xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the socio-psychological factors influencing the manifestation of leadership qualities in students. Particular attention is given to the role of personal motivation, communication culture, and group relations.

Key words: student, leadership, psychology, qualities, socio-psychological factors.

Аннотация: В статье проанализированы социально-психологические факторы, влияющие на проявление лидерских качеств у студентов. Особое внимание уделено роли личной мотивации, культуры общения и групповых отношений.

Ключевые слова: студент, лидерство, психология, качества, социально-психологические факторы.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy liderlarning kamayib borayotgani insoniyat jamiyatini tashvishga solmoqda. Shu nuqtai nazardan, yosh zamonaviy liderlarni yuzaga chiqarish dolzarblik kasb etmoqda. Har bir sohada liderlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlab turish muhim hisoblanadi. Sababi, bugungi kun jamiyatiga albatta aynan shunday shaxslar kerak.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit o'zgarishi bilan rahbarga qo'yiladigan talablar ham o'zgardi. Zamonaviy milliy jamiyatimiz paydo bo'layotgan muammolarni ko'ra olish, bashorat qilish va hal qilishga qodir liderlarga muhtoj. Ayniqsa, jamiyatning eng istiqbolli qismi bo'lgan yoshlar muhitida liderlikni rivojlantirish muhimdir. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida liderlik xatti-harakatlarining barqarorligini shakllantirish uchun maxsus texnologiyalar talab qilinadi. Shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining boshlang'ich davriga to'g'ri keladigan talabalik davri deyarli barcha tashqi ta'sirlarga sezgirlik bilan ahamiyatlidir [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda butun dunyoda liderlarni erta aniqlash, o'qitish va rivojlantirish muammosi psixologiyada faol o'rganilmoqda. Liderlik muammolari bo'yicha xorijda (K. Baird, S. Mills, R. Stogdill, F. Fiedler, G. Gert, N. Gordon va boshqalar), MDH psixologlari orasida (E. M. Arkin, I. P. Volkov, A. S. Makarenko, B. D. Parygin, L. I. Umanskiy, N. S. Zherebova, A. V. Petrovskiy, G. M. Andreeva va boshqalar) katta ilmiy tajriba to'plangan. Shu bilan birga, mamlakatimiz fan va ta'lim amaliyotida ham (B. Kadirov, K. Kadirov, O. Hasanov, N. Boymurodov, M. Bekmuratov va boshqalar) bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi oshib bormoqda [2]. Liderlik mavzusi va muammosi juda faol o'rganilishiga qaramasdan, uning barcha jihatlarini hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Talabalik shaxsni rivojlantirishda burilish davri hisoblanadi. Talabalik davrida shaxs oldida turgan mas'uliyatli va murakkab vazifalar subyektning o'zi faolligini, o'zi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, maqsadlarni



aniq belgilashga, o'zini va boshqalarni tushunishga hamda qabul qilishga, uning fikrlarini shakllantirishga, har xil qarashlardan foydalanishga qodir. Shunday qilib, talabalik davrida liderlik faoliyatiga tayyorlikni shakllantirish muammosi dolzarb deb ta'kidlash joiz.

Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi ushbu mavzuning zamonaviy psixologiyada yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, talabalarda liderlik xususiyatlarining namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari bo'yicha to'liq tavsiyalar yo'qligi bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Liderlik mavzusining rivojlanishi asrlarga borib taqaladi. Bunga tarixiy rahbarlarning faoliyatini tahlil qilgan ko'plab o'tmish faylasuflarining (Aristotel, Plutarx, Svetoniy va boshqalar) asarlarida uchraydi. Liderlikni tadqiq etilishi nafaqat faylasuflar, balki psixologlar, sotsiologlar, tarixchilar, iqtisodchilar va boshqa bilim sohalari mutaxassislari tomonidan ham kuzatiladi. Ularning sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilgan o'zgarishlar liderlikning tabiati va paydo bo'lishining asosiy omillarini turli yo'llar bilan tushuntirib beradigan bir qator nazariya va tushunchalarni yaratishga yordam berdi.

Psixologik fan sohasiga qat'iy kirib, liderlik muammosi uzoq vaqt davomida chet elda (Bennis U., Druker P., Saunders R., Stogdill R., Tannenbaum R. va boshqalar), biroz keyinroq esa MDHda rivojlanib bordi (Anufrieva V. F., Zatsepin V. I., Kovalev A. G., Krichevskiy P. J., Kuzmin E. S., Maslova N. F., Shlyaxtin G. S. va boshqalar). Bugungi kunga qadar liderlikning shaxsiy, vaziyatli, shaxsiy-situatsion, gumanistik va boshqa liderlik nazariyalari doirasida olib borilayotgan liderlik talqiniga ko'plab yondashuvlar mavjud [3, 7].

Bugungi kunga qadar liderlikning psixologik xususiyatlari (Levin K., Bleyk R., Mouton J., Likert K., Berulava G. A., Rusalnova A. A. va boshqalar), liderning shaxsiy va xulq-atvor xususiyatlari (Kurachinova Yu. L., Sosland A. I.), liderning hokimiyat fenomeni (Xoll R. X., Stogdill R., Freyd Z. va boshqalar) tahlil qilingan, liderlikning tipologiyalari yaratildi (Bartlett F. S., Redl F., Parygin B. D. va boshqalar). Liderlikni tegishli hodisalar bilan, birinchi navbatda yetakchilik bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borildi (Andreeva G. M., Parygin B. D., Petrovskiy V. A., Petrovskaya L. A., Nemov P. C., Volkov I. P., Yaroshevskiy M. G. va boshqalar). Liderlik masalalarini o'rganishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u birinchi navbatda siyosiy (Evtixov O. V.) yoki boshqaruv (Yaroshevskiy M. G., Rozanova V. A. va boshqalar) bilan bog'liqdir. XX-asrning boshlarida liderlikni rivojlantirishda ma'lum tajriba to'plandi (Arkin E. A., Zaluynny A. C., Makarenko A. C. va boshqalar) [9].

Talabalar jamoasida liderlik fenomenini ko'rib chiqish hali yetarlicha rivojlanmagan. Shu bilan birga, talabalar (Ananiev B. G., Kuzmina N. V., Kulyutkin Yu. N., Rean A. A., Feldstein D. I., Yakunin V. A. va boshqalar) ustida olib borilgan tadqiqotlar universitetda o'qish davrida uni shakllantirishning ba'zi old shartlarini aniqlashga imkon beradi. Talabada liderlik xususiyatlarining namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik tomonlarini o'rganish uchun alohida e'tibor talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Liderlik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan Elers metodikasida shaxsning ijtimoiy xulq motivatsiyasi va muvaffaqiyatga yo'nalganligi, uning harakat dasturi hamda maqsadlarida namoyon bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy huquqi va muvaffaqiyatga yo'nalganligi, uning harakat dasturi hamda maqsadlarda namoyon bo'ladi. Muvaffaqiyatga yo'nalgan shaxslarda o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish sifatleri yuqori bo'ladi, ikkinchi toifadagi kishilarda esa juda past bo'ladi. Psixologiyada shaxsning ijtimoiy xulq motivlarini o'rganuvchi xilma-xil metodikalar mavjud. Shulardan biri T. Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan metodikasidir. Ushbu metodikada 41 ta muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan savollar berilgan. Ularga muvofiq, agar talaba 1 balldan 10 ballgacha yig'gan bo'lsa, unda bu talabada muvaffaqiyatga nisbatan juda past motivatsiya ekanligi aniqlanadi. Agar talaba 11 balldan 16 ballgacha yig'sa, unda bu talabada muvaffaqiyatga nisbatan o'rta darajadagi motivatsiya ekanligi aniqlanadi. Agar talaba 17 balldan 20 ballgacha yig'gan bo'lsa, ushbu talabada anchagina yuqori motivatsiya ekanligi ko'rinadi. Nihoyat, agar talaba 21 dan yuqori ballni qo'lga kiritse, bunda u muvaffaqiyatga nisbatan o'ta yuqori motivatsiyaga ega ekanligi ko'rinadi [12].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muvaffaqiyatga kuchli darajada yo'naltirilgan odamlar o'rtacha xavfni afzal ko'rishadi. Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadiganlar kichik yoki, aksincha, juda yuqori xavf darajasini afzal ko'rishadi. Biror kishi muvaffaqiyatga erishishga undaganida maqsadga erishish uchun tavakkal qilishga tayyorligi kamayadi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiya muvaffaqiyat umidiga ham ta'sir qiladi: muvaffaqiyat uchun kuchli motivatsiya mavjud bo'lsa, muvaffaqiyatga bo'lgan umid zaif motivatsiyaga qaraganda kamroq bo'ladi [11]. Bundan tashqari, muvaffaqiyatga erishishga undaydigan va undan katta umidvor bo'lgan odamlar yuqori xavfdan qochishadi. Muvaffaqiyat qozonish uchun yuqori ishtiyoqli va xavf-xatarlarni olishga tayyor bo'lganlar xavflarni olishga yuqori motivatsiya qilingan, ammo muvaffaqiyatsizlikka



(mudofaaga) yo'l qo'ymaslik uchun yuqori darajadagi motivlarga ega bo'lganlarga nisbatan baxtsiz hodisalar kamdan-kam uchraydi. Aksincha, agar odam muvaffaqiyatsizlikka (mudofaaga) yo'l qo'ymaslik uchun yuqori motivatsiyaga ega bo'lsa, bu muvaffaqiyat maqsadiga erishishga xalaqit beradi [5].

Liderligi yuqori va hukmini o'tkaza oladigan talabalarda Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash metodikasidan olingan natija o'rtacha 21 ni tashkil qildi. Bu shuni ko'rsatadiki, liderligi yuqori talabalarda muvaffaqiyatga nisbatan o'ta yuqori motivatsiya mavjud. Liderligi o'rtacha yoki kam rivojlangan talabalarda Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash metodikasidan olingan natija o'rtacha 20 ni tashkil qildi. Bu shuni ko'rsatadiki, liderligi o'rtacha yoki past darajadagi talabalarda muvaffaqiyatga nisbatan yuqori motivatsiya mavjud.



Elersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan metodikasining davomi sifatida Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan metodikasi ham mavjud. Ballar yig'indisi qanchalik baland bo'lsa, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik va himoya qilish uchun motivatsiya darajasi shuncha yuqori bo'ladi:

2 dan 10 gacha ball – himoya qilish uchun past motivatsiya;

11 dan 16 ballgacha – o'rtacha motivatsiya darajasi;

17 dan 20 ballgacha – yuqori motivatsiya darajasi;


20 balldan yuqori – muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, himoya qilish uchun juda yuqori motivatsiya.

Insonning xulq-atvorini qo'llab-quvvatlaydigan va boshqaradigan muvaffaqiyatga erishish hamda muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivlari uning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi va barcha odamlarda uchraydi. "Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik" motivi ustun bo'lgan odamlar uchun o'zlarining psixofiziologik moyilligini zamonaviy hayotga tatbiq etadigan, ularni ijobiy natijaga aylantiradigan faoliyat sohasini topish juda muhimdir. Agar inson sodir bo'layotgan narsalarga munosabatini o'zgartirishni o'rgansa va shunga muvofiq ravishda o'zini o'zgarishlarga safarbar qilsa, dunyoga ijobiy nuqtai nazar shakllanishi mumkin. Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun ustun turtkiga ega odam muvaffaqiyatsizlik obro'ga tahdid solmaydigan kichik yoki aksincha, o'ta katta xavfni afzal ko'radi. Odatda u yuqori darajada himoyalaniishga moyil bo'ladi va baxtsiz hodisalardan qo'rqadi. Bu esa bunday muammoga duch kelish ehtimolini oshiradi. Shaxsning muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivining ustunligi o'zini past baholashga hamda intilish darajasiga olib keladi. Takroriy muvaffaqiyatsizliklar bunday odamni odatiy depressiya holatiga, o'ziga bo'lgan ishonchning doimiy pasayishiga va muvaffaqiyatsizlikka qarshi surunkali qo'rquvga olib kelishi mumkin. Bunday odamlar, qoida tariqasida, yutuq motivatsiyasi rivojlanishining past darajasiga ega bo'ladilar. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi past bo'lgan odamlar o'zlariga ishonmasliklarini va qilayotgan ishlariga yuklanishlarini ko'rsatadilar. Qiyin vazifalar ularni bezovta qiladi.

Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasida liderligi yuqori talabalarda natija o'rtacha 12 ni tashkil qildi. Bu shuni ko'rsatadiki, mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi o'rtacha darajada ekan. Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasida liderligi o'rtacha yoki past darajadagi



talabalarda natija o'rtacha 14 ni tashkil qildi. Bu shuni ko'rsatadiki, mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi o'rtacha darajada ekan.



Talabalarda liderlik motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida Delingerning geometrik figuralari testidan foydalanganmiz. Bunda talabalarga 5 ta geometrik figura taqdim etildi va ularni yoqtirish ketma-ketligida raqamlab chiqish so'raldi. Psixogeometriya testi shaxsni aniqlashdagi eng qulay va amaliy usullardan biri bo'lib, shakllarni tanlashiga qarab shaxsning xarakter xususiyatlarini aniqlash imkoniyati mavjud.

Binobarin, metodikani o'tkazish tartibi juda oddiy bo'lib, uning talqini ham unchalik katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Birinchi tanlangan shakl bu tekshiriluvchining asosiy, markaziy shakli hisoblanadi. Bu shakl uning ustunlik qiluvchi muhim xarakter xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Qolgan to'rtta shakl birinchi (asosiy) shakl xususiyatlarini u yoki bu darajada "bezab" turishi mumkin. Oxirgi shakl esa sinaluvchining tegishli xususiyatni rad etishini, ya'ni unga mos kelmagan xislatni ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda liderlik xususiyatlarini namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotimizda biz liderlikning aynan qaysi xususiyatlar va omillarga xosligini o'rganmoqchi bo'ldik. Tadqiqotimizda olingan natija tahliliga ko'ra, liderlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda quyidagi psixologik xususiyatlar mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqotimizdan olingan natijaga ko'ra, ishonch darajasida liderlik va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi o'rtasida o'zaro bog'liqlik holati kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, liderlik qanchalik yuqori bo'lsa, muvaffaqiyatga erishish ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Ishonch darajasida liderlik va mag'lubiyatdan qochish o'rtasida teskari korrelyatsiya kuzatildi. Ya'ni, liderlik qanchalik yuqori bo'lsa, mag'lubiyatdan qochish shunchalik past bo'ladi.

Liderlik va geometrik figura – to'rtburchak o'rtasida natijalar bog'liqlikni ko'rsatmadi, teskari korrelyatsiya ham ishonch darajasida aniqlanmadi. Ya'ni, qanchalik liderlik past bo'lsa, shunchalik kvadratni tanlash ehtimoli yuqori bo'ladi. Liderlik va geometrik figura – uchburchak o'rtasida ham natijalar bog'liqlikni ko'rsatmadi. Korrelyatsiya natijasiga ko'ra, liderlik qanchalik past bo'lsa, uchburchakni tanlash ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Liderlik va geometrik figura – zigzag o'rtasida natijalar bog'liqlikni ko'rsatmadi. Ya'ni, korrelyatsiya natijasiga ko'ra, zigzag shaklini yuqori liderlikka ega shaxslar ko'proq tanlaydilar.

Liderlik va tolerantlik o'rtasida natijalar bog'liqlikni ko'rsatmadi. Ya'ni, korrelyatsiya natijasiga ko'ra, liderlik qanchalik yuqori bo'lsa, tolerantlik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Texnika yo'nalishi talabalarida liderlik bir necha ko'rinishda namoyon bo'ldi. Ular quyidagicha:

Texnik loyiha rahbari. Talabalar o'zaro jamoaviy loyihalarda ishtirok etayotganda, loyiha rahbari bo'lish orqali liderlik ko'nikmalarini namoyon qiladilar. Ular strategiyani belgilaydilar, vazifalarni taqsimlaydilar va jamoani maqsadlarga erishishga yo'naltiradilar.

Tadbirlar tashkilotchisi. Texnik seminarlarda, konferensiyalarda yoki ko'rgazmalarda talabalar tadbirlarni tashkil etib, boshqaruv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Mentor yoki tayanch. Kattaroq kurs talabalari yangi talabalarni qo'llab-quvvatlab, ularga o'z tajribalarini o'rgatish orqali liderlik ko'nikmalarini namoyon qiladilar.

Guruh muhokamasi. Texnik fanlar bo'yicha muhokamalarda faol ishtirok etish, o'z fikrlarini aniq va samarali taqdim etish orqali liderlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Innovatsion g'oyalar. Talabalar o'z ixtirolari yoki innovatsion g'oyalari bilan chiqish orqali yangi texnologiyalarni taklif qilish va amalga oshirishda lider sifatida rol o'ynaydilar.

Komanda ishlari. Olimpiadalar yoki musobaqalarda ishtirok etishda talabalar jamoa sifatida ishlash va rahbarlik qilish jarayonida liderlik ko'nikmalarini namoyon qiladilar.

Ijtimoiy faoliyatlar. Texnika yo'nalishi talabalarining ijtimoiy masalalarda, masalan, ekologik loyihalarda faol ishtirok etishi va jamoani birlashtirishi ham liderlikni namoyon etadi.

Bu ko'rinishlar texnika yo'nalishi talabalarining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitishi, shuningdek, kelajakdagi lider sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Liderlik ko'nikmalari nafaqat professional sohada, balki shaxsiy hayotda ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Omonov B. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati. – T.: "O'zbekiston", 2000.
2. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. – T.: "Akademiya", 2006.
3. Razzoqov Sh. Rahbarlik san'ati. – T.: "Sharq", 1997.
4. Stogdill R. M. Handbook of Leadership. A Survey of Theory and Research. – New York: The Free Press, 1974.
5. Xolbekov A. J. Boshqaruv sotsiologiyasi. – T.: "Akademiya", 2008.
6. Xuseynov B. M. O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati a'zolarida zamonaviy liderlik qobiliyatlarini shakllantirish. – T., 2009.
7. Abramova G. S. Vozrastnaya psixologiya: Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov. – M.: "Izd-vo", 2000. – 621 s.
8. Andreeva G. M. Sotsialnaya psixologiya. – M.: Aspekt Press, 2009. – 384 s.
9. Belyakova N. V. Sotsialno-psixologicheskie osobennosti proyavleniya liderstva v studencheskix gruppax. Dis. ... kand. psixol. nauk. – M., 2002. – 197 s.
10. Bityanova M. R. Sotsialnaya psixologiya. – Piter, 2008.
11. Bleyk P. P., Mouton D. Nauchnie metodi upravleniya. – Kiev, 1990.
12. Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Tasvir", 2018. – B. 72.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.